



# «ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining  
581 yilligiga bag'ishlangan xalqaro  
ilmiy-nazariy anjuman  
materiallari

2022-yil, 5-fevral

## «ALISHER NAVOI AND THE XXI CENTURY»

The Materials of the International  
Scientific-Theoretical Conference on the Theme

2022 year 5 february

**The Ministry of Higher and Secondary Education of the  
Republic of Uzbekistan**

**Tashkent State University of Uzbek Language and  
Literature named after Alisher Navo'i**

**The Materials of the International Scientific-Theoretical  
Conference on the Theme**

**«ALISHER NAVOI AND THE  
XXI CENTURY»**

**Tashkent – 2022**

## MUNDARIJA

### I SHO'BA. ALISHER NAVOIYNING ILMIIY MEROSI VA MATNSHUNOSLIK PANEL I. SCIENTIFIC LEGACY OF ALISHER NAVOI AND TEXTOLOGY

<b>Shuhrat SIROJIDDINOV.</b> Alisher Navoiy o'z ustozlari haqida	5
<b>Ramiz ƏSKƏR (Azərbaycan).</b> Yubiley kitablari	10
<b>Nafas SHODMONOV, G'iyosiddin SHODMONOV.</b> Navoiy g'azallariga Munis muxammaslarining matniy xususiyatlari	13
<b>Labib Said MOHAMMAD OLIM, Nadim MOHAMMAD HUMOYUN</b> (Afg'oniston). Alisher Navoiyning Xurosondagi izlari va adabiy an'anasining davomi	24
<b>Aftondil ERKINOV.</b> Temuriylar davri durdonasi ("Guliston"ning o'zbek tilidagi yangi tarjimasini)	30
<b>Emek ÜŞENMEZ.</b> Türkmenistanmili el yazmalar kütüphanesindeki Ali Şir Nevâi yazmalari haqqida	35
<b>Ализода САЙИДХОДЖА.</b> Рукописные произведения Алишира Наваи в фонде восточного рукописей национальной Академии Науки Республики Таджикистан и их характерной особенностями	50
<b>Gulnoz XALLIYEVA.</b> Germaniyada Alisher Navoiy qo'lyozmalari	54
<b>Sherxon QORAYEV.</b> Amir Ahmad Hojibek Vafoiy adabiy bazmlari va Alisher Navoiy	57
<b>Shermuhammad AMONOV.</b> Ahmad Tabibiyning Navoiy g'azallariga bog'lagan musaddaslari	61
<b>Rustamjon JABBOROV.</b> Sulton Ya'qubning Navoiy tilga olgan bir ruboiysi xususida	64
<b>Oysara MADALIYEVA.</b> Alisher Navoiy "Terma devon"lari tarkibidagi g'azallarning matniy tadqiqi	72
<b>Sadat MONESA SAYED</b> (Afg'oniston). Abdulhakim Shar'iy Juzjoniy – adabiyotshunos olim	96
<b>Yaldo NURIY</b> (Afg'oniston). Navoiyning Afg'onistonda o'rganilishi va asarlarining nashr etilishi	100
<b>II SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSI VA TARJIMAI HOLI PANEL II. ALISHER NAVOI'S BIOGRAPHY AND LITERARY HERITAGE</b>	
<b>Muslihiddin MUHIDDINOV.</b> «Saddi Iskandariy» dostoni hamdlaridagi hikmatlar	107
<b>Nurboy JABBOROV.</b> Alisher Navoiy an'alarining Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik sintezi	112
<b>Shar'iy JUZJONIY.</b> Alisher Navoiy oshiq bo'lganmi?	126

mavqei	
<b>Tozagul MATYOQUBOVA.</b> Nafis tuyg'ular zalvori	249
<b>Sohiba UMAROVA.</b> Navoiy lirikasida iqtibos	255
<b>Durdona ZOHIDOVA.</b> Navoiy lirikasida visol orzusining poetik talqini	257
<b>Salomat MATKARIMOVA.</b> Alisher Navoiy "Bog'i nazmi shakkaristonidan bir gulqand" sharhi	261
<b>Laylo JO'RAYEVA.</b> Maqomlarda Alisher Navoiy g'azallarining qo'llanilishi	267
<b>Afifa G'ANIYEVA.</b> Alisher Navoiyning "Bois" radifli orifona g'azallarida sababiyat va oqibat	273
<b>Qamariddin QANET.</b> "G'aroyib us-sig'ar" g'azallarida qo'llanilgan qofiyalar badiiyati va muraddaf g'azallar	282
<b>Mina KARWANY</b> (Afg'oniston). Lutfiy va Navoiy she'riyatida husni ta'lil san'ati	294
<b>Jamila ISOR</b> (Afg'oniston). Navoiy va Bobur shi'riyatida irsoli masal va tamsil san'atlari	299
<b>IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY: AN'ANA VA YANGILANISH, ZAMONAVIY ADABIYOTDA BUYUK SHOIR OBRAZI TALQINI</b>	
<b>PANEL IV. THE PLACE, TRADITION AND RENEWAL OF ALISHER NAVOI'S LITERARY HERITAGE</b>	
<b>Fuzuliy BAYAT</b> (Azərbaycan). Образ Навои в узбекском и среднеазиатском фольклоре	306
<b>Qosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA.</b> Navoiy international conference 2022	319
<b>Nizomiddin MURODIY</b> (Xo'jand). Alisher Navoiyning g'arbiy Xitoydagi izdoshlari	325
<b>Nusratullo JUMAXO'JA.</b> "Alisher Navoiy" romanida shoir shaxsiyati va ijtimoiy-adabiy qiyofasining badiiy ifodasi	330
<b>Ilhom G'ANIYEV.</b> Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy ijodida taqdir muammosi	334
<b>Baxtiyor FAYZULLOYEV</b> (Xo'jand). Nodira ijodida Navoiy an'analari	339
<b>Islomjon YOQUBOV, Go'zal ATABOYEVA.</b> "Navoiy va rassom Abulxayr" roman dilogiyasining shakliy-uslubiy o'ziga xosligi	344
<b>Zilola AMONOVA.</b> Nasimiy va Navoiy ijodida tavhid talqini	350
<b>Elchin IBROHIMOV</b> (Azərbaycan). Alisher Nevai'nin türk dünyasında öğrenilmesi Muhakemetü'l lughateyn eserinin türkçe'ye katkileri	354
<b>Abdumurod TILAVOV.</b> Alisher Navoiy xorijlik olimlar nigohida (Turkiyalik olima professor doktor Funda Toprakning "Tasavvufiy va adabiy tomonlari bilan Alisher Navoiy" tadqiqoti haqida)	360
<b>Ahmet AKALIN</b> (Turkiya). Türk Devletleri Teşkilatı "Ali Şir Nevai Uluslararası Ödülü"	363

<b>Barno HASANOVA.</b> Jadidlarning Navoiy shaxsi va ijodiga munosabati masalasi	367
<b>Gulbahor ASHUROVA.</b> Muhammad Alining "Navoiy va Boyqaro" dramasi Navoiy obrazining badiiy talqini	372
<b>Nazmiya MUXITDINOVA.</b> Muhammad G'oziy ijodida Navoiy uslubiga izdoshlik ko'rinishlari	380
<b>Olmosxon ABDURAHMONOVA.</b> Adabiy an'ana va ijodiy ta'sir	384
<b>Furqat TO'XTAMURODOV.</b> Muhsiniyning Navoiyga tatabbu'si va tahrir masalasi	387
<b>Dilfuza AVAZOVA.</b> Alisher Navoiy, Furqat va Abdulla Oripov ijodida Ka'batulloh mavzusining badiiy talqini	390
<b>Yulduz ABDULHAKIMOVA.</b> Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlarida hushdan ketish va tush motivlarining o'rni	395
<b>Sevinchoy YOQUBOVA.</b> Fitrat "Farhod va Shirin" dostoni tadqiqotchisi	401
<b>Abdul Haq RAHIMI.</b> Afg'oniston o'zbek she'riyatida Navoiy an'analari	405
<b>Feruza SULTONQULOVA.</b> Alisher Navoiy ijodining zamonaviy o'zbek she'riyatiga ta'siri (Usmon Azim ijodi misolida)	414
<b>Bekposhsha RAHIMOVA.</b> Navoiy dahosiga izdoshlik	418
<b>Jumagul SUVONOVA.</b> Alisher Navoiy ijodida arba'in-hadis va XXI asr an'analari poetikasi	423
<b>Muhabbat RAJABALIYEVA.</b> Poyon Ravshanov – navoiyshunos	430
<b>V SHO'BA. ALISHER NAVOIYNING LINGVISTIK MEROSI VA SHOIR IJODINI O'QITISH MUAMMOLARI</b>	
<b>PANEL V. ALISHER NAVOI'S LINGUISTIC HERITAGE AND PROBLEMS OF TEACHING THE POET'S WORK</b>	
<b>Prof. Dr. Hikmet KORAŞ</b> (Turkiya). Alishir Nevayi'de yazi dili suuru	435
<b>Baxtiyor ABDUSHUKUROV.</b> Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar	446
<b>Zulxumor XOLMANOVA.</b> Alisher Navoiyning omonimlarga oid mulohazalari	453
<b>Dilnavoz YUSUPOVA.</b> "Farhod va Shirin" dostonini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish	460
<b>Barno ABDURAHMONOVA.</b> Maktab adabiy ta'limda Navoiy hayoti va ijodini o'rgatish masalalari	471
<b>Malohat AHMEDOVA.</b> Alisher Navoiy asarlaridan foydalanib mustaqil va o'quv topshiriqlarini pragmatik tuzish usullari	475
<b>Aliboy QAHRAMONOV, Davlatyor JUMASHEV.</b> Navoiy asarlarining til xususiyatlari	480
<b>Azizbek JANGABAYEV.</b> Navoiy asarlarining qoraqalpoqcha tarjimalari tilining ma'no stilistik xususiyatlari	486

## MUHSINIYNING TATABBU' G'AZALIDA MUALLIF TAHRIRI

*Furqat TO'XTAMURATOV*

*ToshDO'TAU*

*(O'zbekiston)*

Alisher Navoiy she'riyati badiiy mukammalligi va takrorlanmas ifoda uslubi bilan o'zbek adabiyotida ajralib turadi. Navoiy ijodidan ta'sirlanish shoir hayotlik davridan boshlanib, hozirgi kun ijodkorlariga ilhom berayotgani ham ayni haqiqatdir. Professor Begali Qosimov ta'bir bilan aytganda Navoiy ijodi "o'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisi" hisoblanadi. Navoiydan keyin yashab ijod qilgan o'zbek shoirlari she'ryatda ulug' ijodkorga ergashishni nazira va muxammas bog'lab amalga oshirgan. XIX oxiri -XX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari she'riyatda buyuk shoir ijodi katta ta'siri qilgani ilm ahliga ma'lum. Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Muhayyir va boshqa shoirlar Navoiy ijodi an'alariga amal qilib, bir qancha badiiy mukammal asarlar yozgan. Husaynquli Muhsiniy (1860-1917) lirikasida ham Navoiy asarlariga ergashish va ta'sirlanish yaqqol seziladi. Muhsiniy dastxat 7392 inventar raqamli devoni debochasida shunday yozadi: ... *valoyat va karomat majolisining shohidi marg'ubi va majzubi, daqoyiq va haqoyiq gulistonining andalibi g'azalsaroyi, a'na hazrat amir Alisher al-mutaxallas bin-Navoiy toballohu sarohu va ja'ala jannata masvahu ravoni xuldi makonlaridin madadu istimdod tilab ushbu bodiyayi bepoyong'a qadam qo'ydim [2,6<sup>b</sup>].*

Shoir devonida Navoiy g'azallariga bog'lagan tatabbu'lari ijodiy bahramandlik va ta'sirlanish mahsulidir. Mumtoz adabiyotimizda salafllari ijodiga ergashish taxmis, nazira bog'lash ko'rinishida amalga oshirilgan.

"Tatabbu' (ar.- biror narsani izidan borish; kuzatish) –o'zga bir shoir she'ridan ta'sirlanib, undagi vazn, qofiya va radifni saqlagan holda asar yaratish. Nazira o'xshatma va javobiy deb ham yuritiladi. Tatabbu' Musulmon Sharqi adabiyotida adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning keng tarqalgan shakllaridan bo'lib, salafllar yoki zamondosh shoirlar bilan muayyan tarzda o'zaro ijodiy musobaqaga kirishish bilan bog'liq an'ana hisoblangan. Bunda musobaqalashayotgan shoir biror asarga javob bitar ekan, unga ijodiy yondashish, tanlangan mavzu, vazn va qofiya doirasida yangi fikr ayta olish imkoniyatiga ega bo'lishi talab qilingan" [4,174-175].

Muhsiniyning "*kelmadi*", "*o'lturgusi*" radifli va "*zihi yo'lingda bir aftoda odami xokiy*" misralari bilan boshlanuvchi g'azallari bevosita Navoiyga tatabbu' tarzida bitilgan. Ushbu tatabbu' g'azallar yuqorida keltirilgan nazariy talablarga amal qilgan holda yozilgan. Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya" devoniga kiritilgan 804-g'azal matla'si quyidagicha:

*Bir kun meni ul qotili majnunshior o'lturgusi,*

*Usruk chiqib, javlon qilib, devonavor o'lturgusi [1,522-523].*

G'azal an'anaviy 7 baytdan iborat bo'lib, tasavvufiy-irfoniy mazmun anglatadi. Navoiy g'azali *Rajazi musammani solim (mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun, - - V- / - - V- / - - V- / - - V-)* vaznida bo'lsa, Muhsiniy ham tatabbu' g'azalida ushbu vazn, qofiya va radifni saqlagan. 7392 inventar raqamli dastxat qo'lyozma devonda tatabbu' g'azal matla'si quyidagicha:

*Yo Rab, meni majruhni dardi nihon o'ldurgusi,*

*Rang ruhindir za'fila chun za'faron o'ldurgusi [2,80<sup>b</sup>].*

Navoiydan farqli tarzada Muhsiniy g'azalida dunyoviy ishqni kuylagan. Shoir lirik asarlari jamlangan qo'lyozma devonlarida tatabbu' g'azal 3 xil shaklda bitilganini ko'rishimiz mumkin. 1897-98, 1914-15, 1917 yillarda tartib berilgan dastxat devonlarida adib tomonidan g'azalning ma'lum bir o'rinlari tahrir qilinib, sayqallanib mukammal bir ko'rinishga keltirilgan. Muhsiniy tuzatishlari tatabbu' g'azal mazmunini teranlashtirish barobarida shakl va ma'no mutanosibligini ham ta'minlagan. Mazkur g'azal mavjud 3 ta dastxat devonda ham bir xil 9 bayt shaklda bitilgan. Barcha nusxalarda Yusufxo'ja ismi muvashshah qilingani g'azal shakl jihatdan bir xil ekanligini anglatadi. Bu shakliy va zoxiriy o'xshashliklardir. Shoirning birinchi ijodiy yangiligi tatabbu'ni muvashshah tarzida bitishi bo'lsa, g'azalni musajja' shaklida ifodalashi ikkinchi yangiligidir. 7392 raqamli qo'lyozmada bitilgan g'azal boshqa nusxalarga nisbatan mukammalligi bilan ajralib turadi. Biz tahlilda shu nusxa matniga tayandik.

“Musajja’ (ar. sajli, qofiyali) – mumtoz adabiyotdagi qofiya bilan bog’liq she’riy san’at. M.san’ati asosida yozilgan baytlar bir-biri bilan hajman teng bo’lgan to’rt bo’lakka bo’linib, birinchi, ikkinchi va uchinchi bo’laklar o’zaro qofiyadosh, to’rtinchi bo’lak esa asosiy qofiya bilan ohangdosh bo’ladi” [5,192].

Musajja'da g'azalning teng to'rt qismga bo'linib qofiyalanishi asosan, ikkinchi baytdan boshlanadi. Muhsiniy g'azalining ikkinchi baytida *qoqur, otur, sakratur*, so'zlari qofiyadosh bo'lib kelgan. Uchinchi baytda – *mahvashim, nolishim, ishim*; to'rtinchi baytda *bilmading, so'rmading, ilmading*; beshinchi baytda – *barchasi, xase, bandasi*; oltinchi baytda – *ham, adam, qalam*; yettinchi baytda – *ishqida, dardida, hajrida*; sakkizinchi baytda – *topay, o'fay, sepay*; to'qqizinchi baytda – *Muhsiniy, ismingi, fane* so'zlari o'zaro qofiyalangan bo'lsa, to'rtinchi bo'lak asosiy radif *o'ltirgusi* so'zi bilan qofiyalanib, musajja' san'atini hosil qilgan. Ushbu qofiyalanish g'azalning o'zgacha ohangdoshligini ta'minlagan.

Biroq g'azal matnidagi so'z va birikmalar ikkinchi, uchinchi devonlarga muallif tomonidan ma'lum bir tahrir qilinib kiritilgan. G'azal matni muallif tahriri natijasida shakl va ma'no jihatdan yetuk bir ko'rinishga kelgan. Muhsiniy “Gulshani jovid” nomli devonini yillar o'tishi bilan qayta ko'chirish jarayonida yangi she'riy asarlar bilan boyitadi. Devondagi lirik asarlarning janrlari ortishi barobarida mavzu ko'lami ham kengayadi. Shoir she'riy asarlari matni ustida ishlash jarayonida ma'lum bir tahrirlarni amalga oshiradi. Biz Muhsiniyning mavjud uchta dastxat devoniga kiritilgan tatabbu' g'azali matnini qiyoslash

orqali muallif tomonidan amalga oshirilgan tahrirlarni jadvalda berdik. Muallif tomonidan tahrir qilingan soʻz va birikmalarni kursivda boʻyab koʻrsatdik.

1-devon qizil muqovali qoʻlyozma 64a bet	2-devon qora muqovali 129 ab bet	7392-raqamli qoʻlyozma 80b bet
<i>Yo Rab, mani majruhni dardi nihon oʻlturgusi, Rangu ruhimdur zaʻfidan chun zaʻfaron oʻlturgusi.</i>	<i>Yo Rab, meni majruhni dardi nihon oʻldurgusi, Bu zaʻf ila rangi ruhim chun zaʻfaron oʻldurgusi.</i>	<i>Yo Rab, meni majruhni dardi nihon oʻldurgusi, Rang ruhimdir zaʻf ila chun zaʻfaron oʻldurgusi</i>
<i>Vah naylayin qoshin qoqub, mijgon oʻqi birla man, Chobuk samandin sekretib abru kamon oʻlturgusi.</i>	<i>Vah naylayin qoshin qoqub, mijgon oʻqi birlan otib, Chobuk samandin sakratib abru kamon oʻldurgusi.</i>	<i>Vah, naylaram, qoshin qoqur, mijgon oʻqi birlan otur, Chobik samandin sakratur, abru kamon oʻldurgusi.</i>
<i>Soʻrmaydi holim mahvashim, gardungʻa chiqti nolishim, Anduh ila yozu qishim ohi figʻon oʻlturgusi.</i>	<i>Soʻrmaydi holim mahvashim gardungʻa chiqti nolishim, Anduh chekmakdur ishim dardi figʻon oʻldurgusi.</i>	<i>Soʻrmaydi holim mahvashim, charx uzra chiqti nolishim, Dardini chekmakdur ishim zoru figʻon oʻldurgusi.</i>
<i>Faryodi zorim bilmading kulbam aro bir kelmading, Holim soʻrab oʻlturmading ruhi ravon oʻlturgusi.</i>	<i>Faryodu dodim bilmading holim soʻrargʻa kelmading, Kulbam aro oʻltirmading oromi jon oʻldurgusi.</i>	<i>Faryodu zorim bilmading holi dilimni soʻrmading, Bir koʻzga hargiz ilmading, nomehribon oʻldurgusi.</i>
<i>Xoʻboni olamlar bori bir zarra kamtar chokari, Misoling odamda yoʻq pari huru jinon oʻlturgusi.</i>	<i>Xoʻboni olamlar bori senga qilurlar chokari, Qullar ichinda kamtari shohi jahon oʻldurgusi.</i>	<i>Xoʻboni olam barchasi zeri qudumingda xase, Xoki daringni bandasi shohi jahon oʻldurgusi.</i>
<i>Vasfingda shikasta qalam nazdingda husn eli adam, Soyilga boq lutfu karam shohi jahon oʻlturgusi.</i>	<i>Vasfingda shikasta qalam nazdingda husn eli adam, Ojiz gʻulomingdur manam ruhi ravon oʻldurgusi.</i>	<i>Vola erurman, zor ham, darding-la boʻlmishman adam, Holingʻa boq, qoshi qalam, tan notavon, oʻldurgusi.</i>
<i>Ovora boʻldum, hajringda xunoba chekdim dardida, Koʻzi muntazirdur gardida nomehribon oʻlturgusi.</i>	<i>Ovoradurman, hajrida xunoba yuttum dardida, Koʻz intizori gardida nomehribon oʻldurgusi.</i>	<i>Ovoradurman ishqida, xunoba yuttim dardida, Sargʻaydi rangim hajrida, oromijon oʻldurgusi.</i>
<i>Jahd ayladim vaslin topay oʻldum labidin bir oʻfay, Tun kechalar yotmay qoʻyay bagʻrimni qon oʻlturgusi.</i>	<i>Jahd ayladim vaslin topay laʻli labidin ham oʻfay, Koʻz yoshim-la sular sefay ashki ravon oʻldurgusi.</i>	<i>Jononani vaslin topay, oʻldim labidin bir oʻfay, Yoʻlingda koʻzdin suv sepay ashki ravon oʻldurgusi.</i>
<i>Har bayt uzra Muhsiniy qoʻydi muborak ismingi, Koʻrguzdi nazm ichra fane tabʻi ravon oʻlturgusi.</i>	<i>Har bayt uzra Muhsiniy qoʻydi hurufi ismingi, Nazm ichra koʻrguzdi fane tabʻi ravon oʻldurgusi.</i>	<i>Har bayt uzra Muhsiniy qoʻydi hurufi ismingi, Koʻrguzdi sheʻr ichra fane, tabʻi ravon oʻldurgusi.</i>

Yuqorida keltirilgan gʻazal matnlari orasida uchinchi 7392 inventar raqamli qoʻlyozma variantida soʻzlarning qoʻllanishi, vazndagi saktaliklar yoʻqligi hamda mazmun jihatidan teranligi bilan boshqa qoʻlyozmalardan ajralib



turadi. Xulosa qilib aytganda, Husaynquli Muhsiniy umrining oxirgi yillarida devonini qayta ko'chiish jarayonida turli janrdagi she'riy asarlari vaznidagi saktaliklar, mazmunidagi g'alizliklarni bartaraf etadi. Shoir vaqt o'tishi bilan o'z asarlarini tanqidiy ko'z bilan ko'rib, noo'rin va xato qo'llagan so'zlarini ma'nodoshi yoki keng mazmun anglatadigan shakli bilan o'zgartiradi. Bir so'z bilan aytganda she'rlarini qayta tahrirdan o'tkazib, shakl va ma'no jihatdan mutanosib ko'rinishga keltiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами, 20 томлик, I том, Бадойиъ ул-нихоя, – Т.: Фан, 1987.
2. Қўлёзма девон. ЎзР ФАШИ фонди. Инв. 7392.
3. Қўлёзма девон. Тўқ жигрангда Қўкон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади.
4. Қўлёзма девон. Қора муковали Қўкон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади.
5. Юсупова Д. Аруз вази конадалари ва мумтоз поэтика асослари. – Т.: “Таълим- медиа” нашриёти, 2019.
6. Д. Қуроноф, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Т.: Академнашр, 2010.

### ALISHER NAVOIY, FURQAT VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA KA'BATULLOH MAVZUSINING BADIY TALQINI

**Dilfuza AVAZOVA**  
ToshDO'TAU  
(O'zbekiston)

#### Annotatsiya

*Maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy, garchi haj ziyoratiga bormagan bo'lsa ham, "Layli va Majnun" dostonida Majnunning Ka'ba ziyoratiga borgani munosabati bilan bu muqaddas maskanni yuksak badiiyat bilan tasvirlagani tadqiq qilingan. Zokirjon Furqatning "Hajnomi" va Abdulla Oripovning "Haj dastari" turkumlarida ayni mavzuning o'ziga xos badiiy talqin etilgani isbotlangan.*

**Kalit so'zlar:** *Ka'ba, ziyorat, iymon, ijodiy niyat, an'ana, yangilik, ma'rifiy mazmun, poetik tasvir, badiiy talqin.*

#### Annotation

*Great Poet Alisher Navoi who did not go to Hajj pilgrimage, but Ka'ba was well defined by him in his "Layli and Majnun" poem. The specific interpretation of this theme is well-proved by Zakirjon Furkat's "Hajnomi" and Abdulla Oripov's "The Diary of Hajj" works.*

**Key words:** *Ka'ba, pilgrimage, faith, creative, intention, tradition news, enlightenment content, poetic image, artistic interpretation.*

Ka'batulloh ziyorati mavzusi badiiy adabiyotda alohida o'rin tutadi. Hazrat Alisher Navoiy, garchi haj ibodatini ado etishga muyassar bo'lmasa-da, lirik she'rlarida ham, "Xamsa"ning uchinchi dostoni – "Layli va Majnun"da